RESPUBLIKA QISHLOQ XO‘JALIGINING IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xidiraliyev Komil Esanovich, GulDU “Tabiiy fanlar” fakulteti, “Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsent, geografiya fanlari nomzodi.
e-mail: komil@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi, jumladan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasining o‘ziga xos jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Sohaning bugungi kundagi holati statistik raqamlar asosida o‘rganilgan. Muallif tomonidan tahliliy ma’lumotlar asosida, sohaning kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlari qayd etilgan va rivojlantirish bo‘yicha takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jaligi, aholi, oziq-ovqat, iste’mol, soha, suv, yer, ishlab chiqarish, resurs, iqtisodiyot, yo‘nalish.

ВОЗМОЖНОСТИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье подробно анализируется сельское хозяйство, в том числе конкретные аспекты аграрного сектора Узбекистана. Изучена сегодняшнее состояние отрасли на основе статистических данных. На основе аналитических данных со стороны автора отмечена будущие приоритеты отрасли и внесена предложения по развитию.

Ключевые слова. Сельское хозяйство, население, продовольствие, потребление, сфера, вода, земля, производство, ресурс, экономика, направление.

OPPORTUNITIES OF AGRICULTURE OF THE REPUBLIC AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Abstract. This article analyzes agriculture in detail, including specific aspects of the agricultural sector of Uzbekistan. The current state of the industry is studied based on statistical data. Based on analytical data from the author, future priorities of the industry are noted and proposals for development are made.

Keywords. Agriculture, population, food, consumption, sphere, water, land, production, resource, economy, direction.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi-aholini oziq-ovqat mahsulotlari va iste’mol buyumlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish asosi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlaridan farq qiladigan o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

- tarmoqda ishlab chiqarish yer-suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tirik organizmlarning rivojlanishi va o‘zgarish tezligiga bog‘liq;

- tarmoqda bosh ishlab chiqarish vositasi yer resurslari hisoblanadi;

- takror ishlab chiqarish iqtisodiy jarayoni tabiat bilan chambarchas bog‘langan, mahsulot ishlab chiqarish bialogik sikl bilan bog‘liq;

- tuproq-iqlim sharoitiga bog‘liqligi;

- bu tarmoqda suv resurslaridan foydalanish muhim rol o‘ynaydi;

- bu yerda ish vaqti bilan ishlab chiqarish davri mos kelmaydi;

- bu tarmoq o‘zining rivojlanishi jarayonida tabiiy va iqtisodiy sharoitlariga qarab o‘zaro texnologik bog‘liq bir necha tarmoq ishlab chiqarishiga ixtisoslashadi;

- bu yerda tayyor mahsulot (yalpi mahsulotning 20%) ning bir qismi kelgusi davr ishlab chiqarishiga, ishlab chiqarish vositasi (urug‘, em-xashak, chorva va h.k) ga kiradi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligining hayotiy muhimligi quyidagilarda aniqlanadi:

- u aholini oziq-ovqat bilan ta’minlaydi;

- qishloq xo‘jaligi engil va oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyoning asosiy massasini beradi;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi mamlakat og‘ir sanoatining rivojlanish sur’atiga va darajasiga samarali ta’sir ko‘rsatadi;

- qishloq xo‘jalik mehnat resurslarini safarbar qilish sohasi sifatida katta ahamiyatga ega;

- qishloq xo‘jaligining respublika iqtisodiyotidagi roli yana shu bilan aniqlanadiki, u umumxalq masalalarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan jamg‘arishning muhim manbai hisoblanadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning uslubiy asosini ilmiy bilishning ob’ektivlik (xolislik), tarixiylik, sistemalilik, retrospektiv va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuining yuragi hisoblanib, mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘idir. U mamlakat aholisi uchun hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy manbai hisoblanadi. Dunyo ahli sintetik yo‘l asosida yog‘, oqsil va uglevodlarning sintez qilish hisobiga yangi ozuqa resurslarini izlash bilan band. Lekin bu mahsulotlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘rnini egallaydi, degan gap emas.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida ijtimoiy ishlab chiqarish, shu jumladan, tovar-pul munosabatlari alohida o‘rin tutadi. Bu jarayon jahondagi turli mamlakatlarda o‘ziga xos, o‘ziga mos ravishda amalga oshiriladi. O‘zbekistonda bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari respublikaning taraqqiyot darajasini, urf-odatlari, madaniyati va hokazolarni hisobga olgan holda, amalga oshirilmoqda. Xalq xo‘jaligi (iqtisodiyot) ning barcha tarmoqlarida, shu jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllanishida islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari, uning nazariy asoslari, amalga oshirish

xususiyatlari Respublika Prezidenti asarlarida, farmoyishlarida, qonunlarida, Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarda bayon etilgan.

Keyingi yillarda respublikamiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi [3].

Mazkur holatlarni bartaraf etish maqsadida, O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmonda qishloq xo‘jaligi oldida turgan muammo va echimlar o‘ziga xos ravishda ko‘rsatib berilgan. Bular quyidagilar:

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va iste’mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

- yer va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

- qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

- fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

- qishloq xo‘jaligida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma’lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo‘llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

- qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish [4].

Ushbu asosda qaraydigan bo‘lsak, hozirgi davrda bosh vazifa barcha sohalarda bo‘lgani kabi, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida ham-bozor iqtisodiyoti qonunlari, mexanizmlari, kategoriyalari talablarini hisobga olgan holda, ko‘proq, sifatliroq va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, ularni iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni pasaytirish, sotish baholarini takomillashtirish, xarajatlar rentabelligini oshirish imkoniyatlarini qidirib topish va ulardan oqilona foydalanish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda tahlil qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi **qishloq xo‘jaligi** (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi) o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Ishlab chiqarish salohiyati fan-texnika yutuqlarini unumli qo‘llagan holda ko‘tarilib bormoqda. Buni asosi sifatida e’tibor beradigan bo‘lsak, 2022-yil qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi **364,5 trln**. so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik xo‘jaligi – 352,1 trln. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 9,2 trln. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 3,2 trln. so‘mni tashkil qilgan.

Darvoqe, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o‘z iste’moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatidir. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat) lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida etishtirilgan mahsulot (xizmat) lar qiymati asosida shakllantiriladi. 2022 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari hajmi, 2021 yilga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik – 103,6 %, o‘rmon xo‘jaligi – 102,3 %, baliqchilik xo‘jaligi – 101,9 % tashkil qilgan.

Bu yerda shuni alohida takidlash lozimki, qishloq xo‘jaligi, ovchilik xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik xo‘jaligi yagona tizim (soha) asosida faoliyat yuritsada, o‘ziga xos vazifalarni bajaradi.

Masalan, *qishloq xo‘jaligi mahsulotlari*–fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda etishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami

qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Ovchilik xo‘jaligi esa-ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik yog‘ochlarini etishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan sohadir.

Jumladan, *baliqchilik xo‘jaligi* – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni etishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi hisoblanadi.

Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Samarqand (43 933,0 mlrd. so‘m), Andijon (37 403,9 mlrd. so‘m), Toshkent (35 184,1 mlrd. so‘m), Buxoro (34 102,9 mlrd. so‘m), Farg‘ona (33 395,3 mlrd. so‘m) va Qashqadaryo (33 384,6 mlrd. so‘m) viloyatlarida qayd etilgan. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (12 342,0 mlrd. so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (14 359,1 mlrd. so‘m) va Navoiy viloyatini (16 070,5 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin. Nisbiy ko‘rsatkichlarda, Samarqand viloyatining ulushi 12,0 % ni, Andijon va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,3 % va 9,6 % ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo viloyati (3,4 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,9 %) va Navoiy viloyatida (4,4 %) qayd etilgan.

Samarqand va Andijon viloyatlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi bo‘yicha Respublikada etakchi o‘rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go‘sht, sut, kartoshka, sabzavotlar, uzum, meva va rezavorlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Aksincha, go‘sht, sut, tuxum, kartoshka, sabzavotlar, uzum, meva va rezavorlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishda hududlar orasida Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasining kam ulushga ega ekanligini qayd etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari hajmi joriy narxlarda 10 225,6 ming so‘mni, 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 101,5 % ni tashkil etgan. Hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari hajmining 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’atini tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori o‘sish sur’ati Buxoro viloyati (102,0 %), Namangan viloyati (101,9 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (101,9 %), Navoiy viloyati (101,8 %) va Xorazm viloyatlariga (101,7 %) to‘g‘ri keladi. Aksincha o‘sish sur’ati past hududlarga Surxondaryo (100,2 %), Jizzax (101,1 %), Sirdaryo (101,3 %) va Andijon (101,4 %) viloyatlarini kiritishimiz mumkin.

Bugungi global, hududiy va mahalliy doirada oziq-ovqat muammosini bartaraf etishda, dehqonchilik va chorvachilik sohalarida qo‘llanilayotgan texnika va

texnologiyalar, erishilayotgan yutuqlar o‘zgacha. Respublikamizda 2022-yil etishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari barcha toifadagi xo‘jaliklarda 7 994,9 ming t. donli ekinlar (2021-yilga nisbatan 4,7 % ga ko‘p), 3 441,7 ming t. kartoshka (4,7 % ga ko‘p), 11 163,0 ming t. sabzavotlar (2,9 % ga ko‘p), 2 420,7 ming t. poliz (5,9 % ga ko‘p), 2 983,5 ming t. meva va rezavorlar (4,6 % ga ko‘p), 1 760,6 ming t. uzum (3,9 % ga ko‘p) etishtirilgan. Jumladan, 2022-yil barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13 857,6 ming boshni tashkil qilgan, (2022-yilga nisbatan 2,3 % ga ko‘p), sigirlar 4 965,7 ming boshga (2,1 % ga ko‘p), qo‘y va echkilar 23 623,7 ming boshga (2,8 % ga ko‘p), otlar 269,1 ming boshga (3,4 % ga ko‘p), parrandalar 97 310,2 ming boshga (5,8 % ga ko‘p) etgan. O‘z navbatida, barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 726,0 ming t. go‘sht, 11 629,4 ming t. sut, 8 129,3 mln. dona tuxum, 37,3 ming t. jun, 1 302,3 ming dona qorako‘l teri etishtirilgan va 177,4 ming t. baliq ovlangan [5].

Xulosa (Conclusion). Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati O‘zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakat yalpi ichki daromadining uchdan bir qismidan ortiqrog‘i qishloq xo‘jaligining hissasiga to‘g‘ri keladi. Sohada 3,5 milliondan ortiq aholi ish bilan band, va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chet elga sotishdan tushgan tushumlar O‘zbekistonning umumiy eksport daromadlarining 25 foizigacha tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi-oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasi shu bilan birga butun mamlakat bo‘ylab ko‘plab qishloqlar va kichik shaharlarning iqtisodiy o‘zagi hisoblanadi, zero u joylarda qishloq xo‘jaligidan tashqari boshqa muqobil daromad manbalari mavjud emas.

Mana shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan ushbu sohani kelajakda rivojlantirish va takomillashtirishda, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ishlarni oqilona yo‘lga qo‘yish lozim:

- soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash;
- tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish.

Takliflar (Recommendations). Mazkur yo‘nalishlar doirasida qishloq xo‘jaligi (qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi) ni yagona tizim sifatida shakllanishi va rivojlanishida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- yer ajratish va uni olib qo‘yishda shaffof tizim yaratish, yerdan foydalanuvchilar huquqlarini kafolatlaydigan tizim yaratish;
- yerlarni noqonuniy ajratish, ulardan xo‘jasizlarcha foydalanish holatlarini keskin kamaytirish;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni to‘liq xatlovdan o‘tkaziladi;

- respublika hududlarida sug‘orishning suv tejovchi tizimlaridan foydalanishni kengaytirish va ushbu tizimlarni joriy qilishni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

- hududlarni ixtisoslashtirish, bir joyda bir xil mahsulotlarni etishtirish, agroinnovatsion g‘oyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga sharoit yaratish;

- paxta xomashyosi va boshoqli don etishtirishda davlatning ishtirokidan bosqichma-bosqich voz kechish;

- ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini amalga oshirish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi va raqobatbardoshligini oshirish va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Ismoilov., O. Murtazayev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent - «Moliya» nashriyoti – 2005. 403-b.

2. Mambetnazarov B. B. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifkatsiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari // Agrosanoat majmui tarmoqlarida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.:TDAU, 2014.- 32 bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni. O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi.

4. Ikromova S. A. va boshqalar. Respublikamiz agroiqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy konseptual asoslari // Agrosanoat majmui tarmoqlarida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.:TDAU, 2014.- 46 bet.

5. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Statistik ma’lumotlar. 2023-yil, yanvar.